O‘ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI OSHIRISHDA MADANIY DIPLOMATIYA VOSITALARINING SAMARADORLIGI

Mirzohid Kurbanov Abdumatalibovich,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Madaniyat ta’limi markazi direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlashda madaniy diplomatiya vositalarining o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Xususan, milliy madaniyat, san’at, an’analar, turizm hamda ta’lim almashinuvi orqali mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro festivallar, ko‘rgazmalar va madaniy tadbirlar orqali O‘zbekistonning boy tarixiy merosini targ‘ib etishning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida madaniy diplomatiyaning zamonaviy shakllari va ularning xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi roli baholanadi hamda ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar va istiqbolli takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. madaniy diplomatiya, xalqaro imij, global, O‘zbekiston, madaniy meros, xalqaro hamkorlik, turizm, san’at, milliy an’analar.

O‘zbekistonda madaniy diplomatiya mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, turizmni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va madaniy almashuvni rag‘batlantirishning muhim vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatning boy tarixiy va madaniy merosi, qadimiy madaniy obidalari, musiqa, adabiyot va san’at sohasidagi boy an’analari xalqaro miqyosda O‘zbekistonni tanitishda samarali resursga aylangan. Madaniy diplomatiya orqali O‘zbekiston nafaqat o‘zining milliy qadriyatlarini targ‘ib qiladi, balki turli davlatlar bilan madaniy va ilmiy almashuvlarni yo‘lga qo‘yadi,

bu esa diplomatik aloqalarni mustahkamlashga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq, avvalo, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. O‘z navbatida, O‘zbekiston boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ham konstruktiv va o‘zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantirmoqda. Tashqi siyosatimizdagi bunday amaliy qadamlar jahon hamjamiyati vakillari, xalqaro ekspertlar, turli mamlakatlarning siyosiy arboblari tomonidan haqli ravishda e'tirof etilayotgani bizga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi. Xalqaro diplomatiya va uning uzviy qismi bo‘lmish madaniy diplomatiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir. [2]

Madaniy diplomatiya vositalari O‘zbekistonning boy merosi, tili va yumshoq kuch strategiyalaridan foydalangan holda xalqaro imijini oshirishda samaradorligini isbotladi. Ingliz tilining diplomatik vosita sifatida integratsiyasi global miqyosda ishtirok etishni osonlashtirdi, san'at almashinuvi va festivallar kabi madaniy tashabbuslar O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniy o‘zligini namoyish etdi. Bu sa'y-harakatlar birgalikda mamlakatni jahon sahnasida yanada qulay idrok etishga yordam beradi.

Madaniy diplomatiya — bu mamlakatning madaniy merosi, san'ati, tili, urfodatlari va ijodiy salohiyati orqali boshqa davlatlar bilan ijobiy muloqot o‘rnatish vositasidir. [3] Bu jarayon nafaqat siyosiy aloqalarni yumshatadi, balki xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatni mustahkamlaydi. Shu sababli madaniy diplomatiya zamonaviy xalqaro munosabatlarda "yumshoq kuch" ("soft power") siyosatining eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. [3]

Joseph Nye ta'kidlaganidek, "yumshoq kuch" bu boshqalarni o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilishga undash qobiliyatidir, bu esa madaniy joziba va qadriyatlar vositasida amalga oshiriladi. Madaniy diplomatiya esa bu kuchni real vositaga aylantirish mexanizmidir. "Yumshoq kuch" kontseptsiyasi davlatlarning o‘z manfaatlarini ilgari surishda majburlash yoki iqtisodiy bosim o‘rniga, o‘z qadriyatlari, madaniy jozibasi va siyosiy institutlarining jalb etuvchi xususiyatiga tayanishini ta'kidlaydi.

Madaniy diplomatiya esa yumshoq kuch resurslarini tizimli va maqsadga

yo‘naltirilgan tarzda safarbar etish va boshqarish vositasidir. U xalqaro maydonda davlatning ijobiy imidjini shakllantirish, madaniy qadriyatlarini targ‘ib qilish va jahon jamoatchiligi ongida ishonch muhitini yaratish vazifalarini bajaradi.

Madaniyat orqali amalga oshiriladigan ta’sir asosan hissiy aloqalar va qadriyatlar umumiyligi asosida shakllanadi. Bu jarayon odatda uzoq muddatli va barqaror bo‘lib, davlatlarning o‘z manfaatlariga erishishida yanada barqaror va do‘stona sharoit yaratadi.

Madaniy diplomatiya bir muhit va makonda istiqomat qiladigan millat va elatlarning bir-birini o‘zaro tushunishi, urf-odatlarini hurmat qilishi, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash maqsadida san’at asarlari va boshqa madaniy komponentlar almashinuvini o‘z ichiga qamrab oladi.

Yurtimiz madaniy diplomatiyasi konsepsiyasida xalqimizning jahonga mashhur tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, O‘zbekistonning qadimiy me’morchiligi va o‘ziga xos an’analari muhim o‘rin tutadi. Bunga ilm-fan, madaniyat va san’at, sport, turizm, ta’lim sohalarida erishilayotgan yutuqlarni misol qilib keltirish mumkin. Faoliyatda keng qo‘llanilayotgan madaniy diplomatiya vosita va mexanizmlari orasida kino, san’at, adabiyot, ilm-fan hamda milliy va xalqaro festivallar ham borki, keyingi yillarda O‘zbekistonda bunday o‘ziga xos san’at bayramlarini o‘tkazish an’anaga aylandi. Ijodiy jamoalarning xorijiy davlatlarga gastrol safarlari ko‘paydi. Bu kabi sa'y-harakatlar, albatta, nafaqat xalqaro miqyosda mamlakatlarning ijobiy imijini shakllantiradi, balki boshqa davlatlarning xalqlari bilan aloqalarni mustahkamlashga zamin yaratadi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, xalqlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni shakllantirish, o‘zaro hurmat, bir-birini anglash, foydali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda madaniy diplomatiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda madaniy diplomatiya vositalari mamlakatning xalqaro imijini oshirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy madaniyat, tarixiy meros, san’at va an’analarni xalqaro miqyosda targ‘ib etish orqali yurtimizning ijobiy qiyofasi shakllanib, uning jahon hamjamiyatidagi nufuzi sezilarli darajada mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, xalqaro

festivallar, madaniy almashinuv dasturlari va ijodiy hamkorlik loyihalari madaniy diplomatiyaning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Shu bilan birga, mazkur vositalar turizmni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, madaniy diplomatiya nafaqat imijni shakllantiruvchi, balki uni mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi strategik omil sifatida O'zbekiston tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Kelgusida bu yo'nalishni yanada takomillashtirish uning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekistonda madaniy diplomatiyaning rivojlanishi. Xalilova Madina Ulug'bek qizi.B-198-199

2. https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7481-xalqaro-maydonda-madaniy-diplomatiyani-o'rni.html

3. Forum on Reforms in the Fields of Culture and Art in New Uzbekistan // TURKSOY news, 24 Oct 2024. (turksoy.org)

4. TURKPA attended Forum within International Cultural Heritage Week in Uzbekistan // TURKPA news, 24 Oct 2024. (Parliamentary Assembly of Turkic States)